



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



2. Usmonova M. Zamonaviy ta'limda multimedia ilovalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Karimova, D. (2019). Multimedia ta'lim dasturlarini yaratish // Pedagogik mahorat. 2019. – № 4 (1). – B. 67–75.
4. Raxmatov, O. (2017). Multimedia texnologiyalarining ta'limdagi o'rni. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
5. Bo'ronov A. Boshlang'ich sinflarda multimedia vositalaridan foydalanish // O'zbekiston pedagogik jurnali, 2021. – № 3(2). – B. 29–36.
6. Qodirova, Z. (2020). Multimedia yordamida ta'limni interaktiv qilish // Ta'lim innovatsiyalari, 2020. – № 1(4). – B. 12–19.
7. Abduraxmonov, K. (2016). Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.
8. Anderson, R. E. (2003). "Multimedia and its impact on learning" Educational Technology Research and Development, 51(4). – P. 15–23.
9. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
10. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-Learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning. John Wiley & Sons.

ADABIY TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Adashaliyeva Nigora Shuhratjonovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Tel: (94)656-91-93, nigoraxon951@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy adabiy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarning ahamiyati tahlil etiladi. O'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirishda interaktiv metodlar, raqamli resurslar, kreativ o'qitish uslublarining roli yoritiladi. Shuningdek, adabiyot darslarida badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, badiiy asarlarni tahlil qilish ko'nikmalari o'sishiga innovatsion yondashuvlarning ta'siri ilmiy asosda o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Adabiy ta'lim, innovatsion texnologiyalar, badiiy-estetik tafakkur, interaktiv metodlar, raqamli resurslar, kreativ o'qitish.

Annotation: The article analyzes the importance of innovative technologies and pedagogical approaches in the modern process of literary education. It highlights the role of interactive methods, digital resources, and creative teaching techniques in developing students' artistic and aesthetic thinking. Furthermore, the study examines the scientific basis of how innovative approaches contribute to instilling cultural and aesthetic values, fostering independent thinking, and improving students' skills in analyzing literary works during literature classes.

Keywords: Literary education, innovative technologies, artistic and aesthetic thinking, interactive methods, digital resources, creative teaching.

Аннотация: В статье анализируется значение инновационных технологий и педагогических подходов в современном процессе литературного образования. Освещается роль интерактивных методов, цифровых ресурсов, креативных методов обучения в формировании художественно-эстетического мышления учащихся. Также



на научной основе изучается влияние инновационных подходов на развитие художественно-эстетического мышления на уроках литературы, самостоятельное мышление учащихся, развитие навыков анализа художественных произведений.

Ключевые слова: Литературное образование, инновационные технологии, художественно-эстетическое мышление, интерактивные методы, цифровые ресурсы, креативное обучение.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan davrda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa, adabiy ta'lim sohasida o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish uchun zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlardan samarali foydalanish zarurati ortdi.

Adabiyot inson tafakkurini, estetik didini, ma'naviy olamini boyituvchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, adabiy ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, badiiy-estetik qadriyatlarni anglash va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Hozirda innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. "Innovatsion texnologiyalar" tushunchasi, asosan, o'quv jarayoniga yangi metodlar, vositalar, texnikalar va pedagogik yondashuvlarni joriy qilishni anglatadi. Adabiy ta'limda esa innovatsiyalar o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini, dunyoqarashini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga va tahlil qilishga o'rgatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Adabiyot ta'limi shunchaki ma'lumot yetkazish emas, balki estetik his-tuyg'ular va badiiy tafakkurni shakllantirishning murakkab jarayonidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, innovatsion texnologiyalar adabiyot darslarida interfaol muloqot, vizual taqdimotlar, multimedia dasturlari, raqamli platformalardan foydalanish orqali o'quvchilarning o'rganish faoliyatini yanada jonlantiradi. Xususan, raqamli ta'lim platformalari orqali adabiy matnlarni onlayn tahlil qilish, virtual bahslar tashkil etish imkoniyati o'quvchilarning adabiy asarlarni idrok etish va baholash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar, shuningdek, o'quvchilarda kreativ fikrlash, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar va zamonaviy axborot muhitida mustaqil izlanish olib borish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Badiiy-estetik tafakkurga ega bo'lish insonning adabiy asarlar orqali hayot va san'at hodisalarini estetik idrok etishi, ulardan zavqlanishi, estetik qadriyatlarni anglab yetishi va baholay olish qobiliyatidir. Pedagogika va psixologiyada badiiy-estetik tafakkur tarbiyasi shaxsning ma'naviy kamolotida asosiy omil sifatida qaraladi. Insonning estetik tafakkuri shakllanib, rivojlanib, takomillashib borgani sari uning ijtimoiy-ruhiy, mafkuraviy-g'oyaviy, siyosiy-ma'naviy intilishlari ham tobora tiniqlashib boradi. Tarixan Turkiston xalqlari estetik tafakkurida go'zallik va ezgulik tushunchalari falsafiy-tasavvufiy tamoyillar, milliy qadriyatlar va umuminsoniy mazmun, shuningdek, sodda demokratik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan uyg'un holda namoyon



bo'lganligi o'z-o'zidan ravshan. Ma'rifatparvar allomalar bu an'analarni davom ettirib, ezigulik va go'zallikni yaxlit hodisa tarzida idrok etadilar²¹².

A.N. Leontyevning fikricha, "tafakkur jarayoni estetik his-tuyg'ular bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi va san'at asarlari orqali inson ongida estetik me'yorlar shakllanadi"²¹³. Shu bois adabiyot ta'limida badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

O'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirishda quyidagi usullardan foydalanish yaxshi samara beradi:

- Badiiy asarlarni chuqur tahlil qilish: asarning badiiy tasvir vositalari, obrazlar tizimi, kompozitsion qurilishini tahlil qilish o'quvchilarning estetik idrokini o'stiradi;

- Interaktiv metodlardan foydalanish: rolli o'yinlar, ijodiy yozuv mashg'ulotlari, adabiy viktorinalar orqali o'quvchilarda badiiy fikrlashni faollashtirish mumkin;

- Multimedia va vizual texnologiyalarni jalb etish: adabiy asarlarning ekranlashtirilgan variantlarini tomosha qilish, san'at va adabiyot o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish estetik his-tuyg'ularni kuchaytiradi;

- Kreativ topshiriqlar berish: matn asosida yangi syujet yaratish, asar qahramonlariga xat yozish, zamonaviy kontekstda hikoya qilish kabi mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodiy-estetik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunday yondashuvlar yordamida o'quvchilar nafaqat badiiy asarlarni o'qiydi, balki ularni chuqur anglaydi, his etadi va o'z estetik dunyoqarashini shakllantiradi. Shu orqali adabiy ta'limning tarbiyaviy va estetik vazifalari to'liq amalga oshiriladi.

Zamonaviy adabiy ta'lim jarayonida interaktiv metodlar va raqamli resurslardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda. An'anaviy uslublardan farqli ravishda, interaktiv metodlar o'quvchilarni faol o'rganishga, mustaqil fikr bildirishga va ijodiy izlanishga undaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar orqali o'tkazilgan adabiyot darslari o'quvchilarning dars jarayoniga qiziqishini 40–60 foizga oshiradi. Bu natijalar adabiy ta'limda yangi yondashuvlarni tatbiq etish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Adabiy ta'limda qo'llanilsa, samara beradigan asosiy interaktiv yondashuvlar quyidagilardan iborat:

- Kichik guruhlardagi muhokamalar: o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, adabiy asardagi muammolarni birgalikda tahlil qilish va ularga yechim topish;

- Rolli o'yinlar: asar qahramonlari rolini ijro etish orqali badiiy obrazlarni chuqurroq anglash va his qilish;

²¹²Umarov E, Karimov R va boshqalar. Estetika asoslari. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 5-b.

²¹³Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – с. 74.



- Debatlar va ochiq fikrlar: adabiy asar mavzusi yoki qahramonlari haqida bahs-munozaralar o'tkazish orqali o'quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish;

- Raqamli resurs va vositalar ham adabiy darslarni yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi;

- Elektron platformalar: online testlar, viktorinalar, adabiy loyihalar yaratishda yordam beradi.

- Audio va video materiallar: audio kitoblarni eshitish, ekranlashtirilgan variantlarni tahlil qilish orqali natijaga erishiladi;

- Virtual kutubxonalar va raqamli ensiklopediyalar: o'quvchilarga mustaqil o'rganish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli resurslar yordamida tashkil etilgan adabiy tahlil mashg'ulotlari o'quvchilarning o'z fikrini ifoda etish va matnni tahlil qilish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Metodist Q. Husanboyevaning fikriga ko'ra, "adabiyot darslarida o'rganish uchun taqdim etilgan har qanday asar – u ertak yoki doston bo'ladimi, maqol yoki matal bo'ladimi, didaktik tahlilga tortilmas, mazmun mohiyatiga kirilmas, o'quvchilar orasida muhokama qilinmas ekan, ularning samaradorlik darajasi hamisha past bo'ladi"²¹⁴. Professor Qozoqboy Yo'ldoshev tomonidan bu borada quyidagicha fikr bildirilgan. "Aslida adabiyot tarixiga daxldor biror dalilni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo'lmagan o'quvchidan ko'ra badiiy asarlarning qahramonlariga xos insoniy fazilatlarini o'z tabiatiga singdirgan, sirtdan qaraganda, nafaolday tuyuladigan o'quvchilar jamiyatimiz uchun ko'proq zarurdir"²¹⁵. Chindan ham o'qigan badiiy asar zamiridagi estetik jozibani his qilgan o'quvchida ezgu ma'naviy va intellektual sifatlar shakllanishi oson kechadi.

Umumta'lim maktablarining 9-sinf adabiyot o'quv dasturida "Alpomish" dostonini o'rganish rejalashtirilgan. Folklorshunos J. Eshonqulov "Alpomish" dostoni haqida shunday deydi: "Ta'bir joiz bo'lsa, ushbu dostonni xalqimizning ko'hna marosimlar, urf-odatlar, irim-sirim, tabularning "qomusi" deb atash mumkin. Chunki hech bir eposda xalqimizning maishiy hayoti bunchalik keng ko'lamda badiiy ifodasini topmagan"²¹⁶. Shunga ko'ra, "Alpomish" dostoni orqali o'quvchilarning adabiy bilimlarini chuqurlashtirish, mustaqil fikrlash va o'ziga xos estetik didini shakllantirishda adabiy ta'limda quyidagi kreativ metodlardan foydalanish mumkin:

1. Erkin syujet yaratish. Bunda o'quvchilarga "Agar Alpomish Boysunga yetib bormaganida voqealar qanday rivojlanardi?" yoki "Oybarchin shart qo'ymaganda qanday o'zgarishlar bo'lar edi?" kabi savollar beriladi. Bu orqali

²¹⁴ Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2022. – 390 b

²¹⁵ Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 42-б.

²¹⁶ Sharipova M. "Alpomish" dostoni – o'zbek xalqi tarixi badiiy ifodasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.



o'quvchilar dostonidagi syujet chiziqlari ustida mustaqil fikrlaydi, voqealarni alternativ tarzda rivojlantirishga o'rganadi.

2. Asar qahramonlariga xat yozish. O'quvchilardan Alpomishga, Oybarchinga yoki Qaldirg'ochga xat yozish so'raladi. Bu orqali o'quvchilar qahramonlarning ruhiy dunyosini chuqurroq his etadilar, hamdardlik tuyg'ulari shakllanadi.

3. Adabiy kompozitsiyalar yaratish. O'quvchilarga doston asosida esse, hikoya yoki sahna ko'rinishlari yaratish topshiriladi. Masalan, asardagi ijtimoiy muammolar haqida esse yoki Alpomishning zindondagi hayoti haqida qisqa hikoya yozish orqali o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlari ham shakllanadi.

4. San'at va adabiyot integratsiyasiga erishish. "Alpomish" dostoni o'qilgach, o'quvchilardan matn asosida sahna ko'rinishi tayyorlash, Alpomish va Oybarchin tasvirini chizish yoki asardagi jangovar sahnalar uchun musiqa tanlash topshiriladi. Bu esa adabiy matnni har jihatdan estetik idrok qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, adabiy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va kreativ metodlardan samarali foydalanish o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlar, xususan, interaktiv usullar, raqamli resurslar va ijodiy faoliyatlarga asoslangan mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning adabiy asarlarni idrok etish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalari sezilarli darajada oshadi. Badiiy-estetik tafakkurning shakllanishi esa shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti, estetik didi va mustaqil fikrlash salohiyati rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, adabiy ta'limda innovatsion yondashuvlar va kreativ metodlarning faol tatbiqi orqali o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha istiqbolli natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2022. – 390 b.
2. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – 130 с.
3. Umarov E, Karimov R va boshqalar. Estetika asoslari. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 208 b.
4. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 151 б.
5. Sharipova M. "Alpomish" dostoni – o'zbek xalqi tarixi badiiy ifodasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.



<i>NUTQINI BAHOLASH PEDAGOGIK-METODIK MUAMMO SIFATIDA</i>	
<i>Ermatova Durdona Zafarjon qizi. INDUCTIVE AND DEDUCTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE: A COMPARATIVE PEDAGOGICAL ANALYSIS</i>	797
<i>Raxmatullayeva Ruxshona Sherzod Qizi. O'ZBEK MILLIY TAOMLARI NOMLARINING SHEVALARDAGI UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI</i>	800
<i>Xudayberdiyeva Orifaxon Rustamjon qizi. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIKA TUSHUNCHASI</i>	803
VII SHU'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	
<i>Р.Нуёзметова. БАДИЙ АСАРДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ВА ҚАҲРАМОНЛАР ТУЙҒУЛАРИ ИФОДАЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ</i>	809
<i>Р.Нуёзметова. O'ZBEK ADABIY TA'LIMIDA XORIJIY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI</i>	813
<i>Исманова Акибатхан Алимжановна. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ “ЎТКАН КУНЛАР” ВА ТЎЛАГАН ҚОСИМБЭКОВНИНГ “СИНГАН ҚИЛИЧ” АСАРЛАРИДА ХОНЛИКЛАР ДАВРИНИНГ БАДИЙ ТАЛҚИНИ</i>	820
<i>Turakulova Okila Amirkulovna. TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARIMIZNING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHIDA BADIY ASARLARNING TUTGAN O'RNI</i>	825
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarmkulovna. TA'LIM TIZIMIDA MANTIQUIY FIKRLASHDAN FOYDALINISH MASALASI: O'TMISH VA BUGUN</i>	830
<i>Oymatova Nilufar Mirjamolovna. JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI O'RGANISH TAJRIBASI</i>	839
<i>Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna. ADABIY ASARNING BADIY MAZMUNINI ANGLASH YO'LLARI</i>	844
<i>Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi. MAKTAB TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</i>	852
<i>Abdixoliqova Mastona Raxim qizi. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISHNING INNOVATION VA PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI</i>	857
<i>Abduraxmanova Ilmira Alimjonovna. O'QITUVCHINING “SEHRLI TAYOQCHASI”: FAOLLIKNI OSHIRUVCHI METODLAR TAHLILI</i>	862
<i>Abdusattorova Dilshodabegim. ERTAKLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA ILOVALARINING O'RNI</i>	865
<i>Adashaliyeva Nigora Shuhratjonovna. ADABIY TA'LIMDA INNOVATION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	870
<i>Beknazarova Farida Matraxim qizi. 5–6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	875

